


ARAB TILIDA FONETIK JIHATDAN O‘ZLASHGAN DIPLOMATIK TERMINLARNING O‘ZLASHISH PRINSIPLARI

Mirziyatov Shuxrat Mirgiyazovich,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti
ORCID: 0009-0007-9142-6400
e-mail: mii.prorektor@tsuos.uz
https://doi.org/10.66803/2026.1.187

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilidagi fonetik jihatdan o‘zlashgan diplomatik terminlarning o‘zlashish prinsiplari tahlil qilinadi. Tadqiqotda diplomatik terminologiyaning shakllanishida tillararo aloqalar, globallashuv va xalqaro siyosiy munosabatlarning o‘rni yoritilgan. Arab tiliga ingliz, fransuz, lotin, fors va turk tillaridan kirib kelgan diplomatik terminlarning fonetik, grafik va grammatik moslashuv jarayonlari ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Maqolada Arab sanoatni rivojlantirish, standartlashtirish va tog‘-kon sanoati tashkiloti (AIDMO) tomonidan ishlab chiqilgan tasnif asosida arablashtirish (التعريب), fonetik ko‘chirish (النقل الصوتي), leksik o‘zlashtirish (الاقتراض اللغوي) va fonetik transliteratsiya (الترجمة الصوتية) usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, “diplomacy”, “parliament”, “visa”, “attache”, “strategy”, “congress” kabi diplomatik terminlarning arab tiliga moslashuvi aniq misollar orqali izohlangan. Tadqiqot natijasida arab diplomatik terminologiyasi xorijiy terminlarni qabul qilish jarayonida arab tilining ichki fonetik va morfologik qoidalariga moslashishi, shu orqali terminologik fondning boyib borishi aniqlangan. Maqola zamonaviy arab tilida neologizmlar va diplomatik terminlarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Arab tili, diplomatik terminlar, fonetik o‘zlashuv, neologizm, arablashtirish, leksik o‘zlashtirish, fonetik transliteratsiya, xalqaro munosabatlar, terminologiya, globallashuv, tillararo aloqalar, diplomatiya.*

ПРИНЦИПЫ ОСВОЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, ФОНЕТИЧЕСКИ ЗАИМСТВОВАННЫХ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Мирзиятов Шухрат Миргиязович,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент Ташкентского государственного университета востоковедения
ORCID: 0009-0007-9142-6400
e-mail: mii.prorektor@tsuos.uz

Аннотация. В данной статье анализируются принципы заимствования дипломатических терминов в арабском языке с фонетической точки зрения. В исследовании освещается роль межъязыковых связей, глобализации и международных политических отношений в формировании дипломатической терминологии. На научной основе рассмотрены процессы фонетической,

графической и грамматической адаптации дипломатических терминов, пришедших в арабский язык из английского, французского, латинского, персидского и турецкого языков. В статье на основе классификации, разработанной Арабской организацией промышленного развития, стандартизации и горнодобывающей промышленности (AIDMO), анализируются такие методы, как арабизация (التعريب), фонетический перенос (النقل الصوتي), лексическое заимствование (الاقتراض اللغوي) и фонетическая транслитерация (الترجمة الصوتية). Также на конкретных примерах объясняется адаптация в арабском языке таких дипломатических терминов, как “diplomacy”, “parliament”, “visa”, “attache”, “strategy”, “congress”. В результате исследования установлено, что арабская дипломатическая терминология в процессе принятия иностранных терминов адаптируется к внутренним фонетическим и морфологическим правилам арабского языка, за счет чего происходит обогащение терминологического фонда. Статья имеет важное научное значение для изучения процессов формирования неологизмов и дипломатических терминов в современном арабском языке.

Ключевые слова: *Арабский язык, дипломатические термины, фонетическое заимствование, неологизм, арабизация, лексическое заимствование, фонетическая транслитерация, международные отношения, терминология, глобализация, межъязыковые связи, дипломатия.*

PRINCIPLES OF THE ASSIMILATION OF PHONETICALLY BORROWED DIPLOMATIC TERMS IN THE ARABIC LANGUAGE

Shukhrat M. Mirziyatov,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies
ORCID: 0009-0007-9142-6400
e-mail: mii.prorektor@tsuos.uz

Abstract. This article analyzes the principles of phonetic borrowing of diplomatic terms into the Arabic language. The study highlights the role of interlingual relations, globalization, and international political relations in the formation of diplomatic terminology. The processes of phonetic, graphic, and grammatical adaptation of diplomatic terms that entered Arabic from English, French, Latin, Persian, and Turkish are examined on a scientific basis. Based on the classification developed by the Arab Industrial Development, Standardization and Mining Organization (AIDMO), the article analyzes such methods as Arabization (التعريب), phonetic transfer (النقل الصوتي), lexical borrowing (الاقتراض اللغوي), and phonetic transliteration (الترجمة الصوتية). Furthermore, the adaptation of diplomatic terms such as “diplomacy”, “parliament”, “visa”, “attache”, “strategy”, and “congress” into Arabic is explained through specific examples. As a result of the research, it was determined that Arabic diplomatic terminology adapts to the internal phonetic and morphological rules of the Arabic language during the process of adopting foreign terms, thereby enriching the terminological fund. The article possesses significant scientific importance for studying the processes of neologism formation and the development of diplomatic terms in modern Arabic.

Key words: *Arabic language, diplomatic terms, phonetic borrowing, neologism, Arabization, lexical borrowing, phonetic transliteration, international relations, terminology, globalization, interlingual relations.*

KIRISH

Har bir tilning lug‘at boyligi jamiyat taraqqiyoti, siyosiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar va madaniy hamkorlik natijasida boyib boradi. Bu jihatdan, diplomatiya sohasi uzoq tarixga ega va ko‘pgina mamlakatni strategik nuqtai nazardan bir-biriga bog‘lab turuvchi tizim ham hisoblanadi. O‘z o‘rnida, bu obyektning terminologik fondi o‘zlashma atama yoki terminlarning ham hisobiga boyib borgan bo‘lishi tabiiy hol. Xususan, diplomatiya sohasiga oid terminlar turli tillar o‘rtasida faol almashinuv jarayonida shakllanadi. Bu soha terminlari davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar hisoblangani uchun ham ularning tarkibida katta qismi boshqa tillardan qabul qilingan o‘zlashmalarni ko‘p uchratish mumkinligi bilan ham ahamiyatlidir.

Tillararo so‘z almashinuvi qadimgi davrlardan boshlangan. So‘zlarining bir tildan boshqa tilga kirishi va singishi shunchaki oddiy jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarihiy sharoitlar bilan bog‘liq qonuniyatdir. Bu holatdan termin ham mustasno emas. Bunda, o‘zlashayotgan termin yoki affiks qaysi tilga qarashli ekanligidan qat’iy nazar o‘sha tilning talaffuz normasiga, so‘z yasalish sistemasining umumiy xarakteriga, uning “qonuniyat”lariga bo‘ysunadi [Lotman, 1982, p. 20].

Keyingi yillarda arab tili leksikasidagi neologizatsiya jarayoni tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalari, xalqaro siyosiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida arab tili leksikasi yangi so‘z va terminlar bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy arab ommaviy axborot vositalari, diplomatiya, iqtisodiyot va texnologiya sohalarida neologizmlarning faol qo‘llanilishi tadqiqotchilar diqqatini jalb etmoqda. Bu orqali arab tilida yangi leksemalar yaratish, xorijiy tillardan terminlarni o‘zlashtirish va mavjud so‘zlarga yangi ma’nolar yuklash jarayoni yuzaga chiqmoqda.

Arab tilidagi neologizmlarning shakllanishi va ularning leksik-semantik xususiyatlari haqida bir qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan. Asosan, Yevropa olimlari chuqur tahliliy materiallarni taqdim qilib bormoqdalar. K. Versteegh arab tili taraqqiyoti va zamonaviy leksik o‘zgarishlar haqida fikr bildirgan [Versteegh, 1997, p. 36]. U arab tilida yangi terminlarning paydo bo‘lishida ommaviy kommunikatsiya va globallashuv muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Yana boshqa tadqiqotchilar esa arab tili morfologiyasi hamda yangi so‘z yasalishi jarayonlarini tahlil qilgan, zamonaviy arab tilida neologizmlarning shakllanishi, ayniqsa, texnologiya va diplomatiya sohalarida faol kechayotgani qayd etiladi [Badawi, 2004; Carter, 2004; Gully, 2004]. Ushbu ilmiy asarlar zamonaviy arab adabiy tilidagi yangi leksik birliklar va ularning funksional xususiyatlari, arab tiliga ingliz va fransuz tillaridan kirib kelgan neologizmlarning adaptatsiya jarayonlari, zamonaviy arab tilidagi neologizmlar, ijtimoiy-siyosiy va media terminologiyasiga oid misollarni tahlili bilan rivojlantirilgan.

Yangi so‘zlarning yasalish jarayoni va ularning til lug‘at tarkibidan o‘rin olishi va boshqa tillarga o‘zlashish masalalari yuzasidan olimlarning bildirgan fikrlari va ular amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovor. Xususan, K. Versteegh boshqa tilga oid so‘zni, ya’ni o‘zlashmani o‘zlashtiruvchi tilga nisbatan “shaklsiz bo‘lak”, deb atagan va quyidagilarni qo‘shimcha qilgan: “XIX–XX asrlarda arab tili yangi siyosiy va texnik tushunchalarni ifodalash uchun sezilarli leksik moslashuv jarayonini boshdan kechirdi” [Versteegh, 1997, p. 227–228]. Zero, yangidan yangi terminlarning paydo bo‘layotgani va ishlatilishi ularni o‘zlashtirayotgan til nuqtai nazaridan neologizm, deya baholanadi. Bu haqda S. Badawi (1929–2014), M. Carter va A. Gully quyidagi fikrlarni keltirishgan: “Zamonaviy

yozma arab tili texnologiya, ommaviy axborot vositalari va xalqaro kommunikatsiya ta’sirida doimiy leksik kengayishni aks ettiradi” [Badawi et.al., 2004, p. 764–765]. Yana boshqa adabiyotda: “Yevropa tillaridan kirgan ko‘plab o‘zlashma so‘zlar zamonaviy arab tiliga ma’muriyat, diplomatiya va ilm-fan orqali kirib kelgan”, – deya qayd etiladi [Gully, 2004, p. 18].

O‘z-o‘zidan bugungi kunda globallashuv jarayonida ingliz tilidan boshqa tillarga, xususan, arab tiliga kirib kelayotgan diplomatik atamalar soni ortib borishi va ular xalqaro munosabatlar sohasida aniqlik va universallikni talab qilishi ko‘zga tashlanadi. Qolaversa, XX asrda ilmiy-texnika, tibbiyot va harbiy sohalarning rivojlanishi barcha tillarda o‘zlashmalarning ortishini ta’minladi.

Ilmiy-texnikaning taraqqiyoti yuzaga kelayotgan maxsus soha terminlarining tilga o‘zlashish va moslashish jarayonlarini ham sinchiklab o‘rganishni taqozo qiladi. Chunki o‘zlashayotgan termin qabul qiluvchi tilda fonetic, grafik va grammatik o‘zlashuv bosqichlarini bosib o‘tgan taqdirdagina singadi. O‘zlashmalarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, ular ma’lum tushunchaning shartli ifodasi sifatida qabul qilinadi. Ular o‘zlashtiruvchi til grammatikasi nuqtai nazaridan ma’noli qism (morfemalar)ga ajratilmaydi.

MANBALAR VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, arab mamlakatlarida yuzaga kelgan akademiyalar, asosan, tildagi o‘zlashmalarga variant berish uchun tashkil etilgan bo‘lib, bu muddatda asosiy e’tiborni yangi arabiy terminlar yasashga qaratdi. Mazkur yo‘nalishda ta’lim muassasalarida, xususan Bayrutdagi Amerika universiteti va Misrdagi tibbiyot fakulteti kabi muassasalarda barcha fanlar, jumladan tibbiyot, muhandislik va qishloq xo‘jaligi kabi ilmiy yo‘nalishlardagi darslarni arab tilida o‘tkazish siyosat darajasiga ko‘tarilganidan keyin barcha o‘quv va ilmiy adabiyotlar arab tiliga tarjima qilingan. O‘z-o‘zidan arabiy qo‘llanmalar yaratilgan va ulardagi ilmiy terminlarning aksariyati o‘zlashma sifatida o‘zlashtirilgan.

Tadqiqotning manbaviy asosini Arab dunyosida til siyosatining katta markazi hisoblangan Arab Industrial Development, Standardization and Mining Organization (AIDMO – Arab sanoatni rivojlantirish, standartlashtirish va tog‘-kon sanoati tashkiloti) tashkilotining rasmiy hujjatlari tashkil etadi. Xususan, tashkilotning “an-niẓām ad-dākhilī lil-lajna al-‘arabiyya al-‘ulyā lit-taqyīs” (“Arab standartlashtirish oliy qo‘mitasining ichki nizomi”) nomli normativ hujjati asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Metodologiya nuqtai nazaridan, ushbu Nizomda keltirilgan tasniflar va qoidalar tizimli ravishda tahlil qilindi va undagi prinsiplar arab diplomatik diskursidagi o‘zlashma terminlar misolida qiyosiy-lingvistik va deskriptiv metodlar yordamida tadqiq etildi. AIDMO Nizomida fonetik o‘zlashmalar va arablashtirish bo‘yicha quyidagi to‘rt tomonlama lingvistik tabaqalashtirish (metod) ko‘rsatilgan va biz tahlilimizda ushbu tasnifga tayandik:

1. التعريب at-ta‘rīb –arablashtirish;
2. النقل الصوتي an-naql aṣ-ṣawtī – fonetik ko‘chirish;
3. الاقتراض اللغوي al-iqtirāḍ al-lughawī – leksik o‘zlashtirish;
4. الترجمة الصوتية at-tarjama aṣ-ṣawtiyya – fonetik transliteratsiya.

MUHOKAMA

Diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohasida arab tili juda boy terminologik tizimga ega. Ayniqsa, XX–XXI asrlarda xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida arab tiliga ingliz, fransuz, fors, turk va lotin tillaridan koʻplab diplomatik terminlar oʻzlashgan. Bu terminlar arab tili fonetik, morfologik va grammatik qoidalariga moslashtirilgan holda qoʻllanadi. Taraqqiyot natijasida muayyan tilga oʻzlashayotgan har qanday soʻz (termin) yoki til elementlari yangi til muhitida uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan oʻtkazadi. Zero, soʻz oʻzlashtirilayotgan til bilan oʻzlashtiruvchi tilning tovushlar sistemasi hamda grammatik qurilishi koʻp hollarda bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari, oʻzlashtirilayotgan soʻz yoki termin har doim ham manba tilidagi ma'nosi bilan oʻzlashtirilavermaydi, oʻzlashtiriluvchi tilning fonetik va grammatik tizimiga moslashtiriladi. Bunda, eng avvalo, oʻzlashayotgan soʻz yoki terminning oʻzlashtiruvchi tilga mos kelmaydigan tovushlari tushib qoladi yoki almashadi. Almashinayotgan tovushlar bir-biriga oʻxshash yoki yaqin boʻlishi lozim.

Arab diplomatik terminologiyasida ham fonetik moslashuv jarayonidan oʻtgan terminlar yetarli. Sababi, birinchidan, arab tilidagi diplomatik terminlarining, asosan, oʻzlashmalardan tashkil topganligi, ikkinchidan, mazkur oʻzlashmalarning arab tili fonetik tizimi va talaffuz normasiga mos kelmasligi bilan izohlash mumkin.

Quyida arab diplomatik oʻzlashma terminlari AIDMO tashkiloti taqsimoti asosida tahlil qilinadi:

1. التعريب ta'rīb "arablashtirish". Bu boʻyicha AIDMOning Nizomida quyidagicha yozib qoʻyilgan:

تعتمد اللغة العربية على التعريب في إدخال المصطلحات الحديثة.

Ta'tamidu al-lugha al-'arabiyya 'alā at-ta'rīb fī idkhāl al-muṣṭalaḥāt al-ḥadītha. [AIDMO, 2020, p. 3].

"Arab tili zamonaviy terminlarni kiritishda arablashtirish usuliga tayanadi".

Arab tili diplomatik terminlari orasida bu turdagi oʻzlashmalar kam foizni tashkil qiladi. Sababi, arab tilining oʻz fonetik va grammatik qoidalari borki, oʻzlashmalarni hech qanday oʻzgarishsiz qabul qilishning iloji yoʻq. Buning ortidan juda oz foizda bu kabi terminlarni koʻrsatish mumkin, shunday boʻlsa ham ular xalqaro transkripsiya qoidasiga koʻra, arab tili fonetik ifodalash normalari bilan yoziladi. Arab tilida qaysi soha va qaysi tildan oʻzlashmasin, arab grafikasida ifodalanishi tabiiy. Ular asosan ingliz, fransuz va lotin tillaridan kirib kelgan boʻlib, arab tilida grafik moslashuv bosqichidan oʻtgan. Masalan, بروتوكول brūtūkūl (ing. "protocol') "protocol", سانكشن sānkshin (ing. "sanction") "sanktsiya", مهمة دبلوماسية mihma diblūmāsiyya (ing. "diplomatic mission") "diplomatik missiya", بروتوكول دبلوماسي brūtūkūl diblūmāsī ("diplomatic protocol") 'diplomatik protocol", استراتيجية istirātījiyya (ing. "strategic") "strategiya", قنصل qunṣul (ing. "consul") "konsul" va boshqa koʻplab misollarni keltirish mumkin.

Arab tilida **p** tovushining mavjud emasligi sababli **b** harfi bilan almashtirish ishlari kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi 'diplomacy' 'diplomatiya' termini دبلوماسية diblūmāsiyya, "parliament" termini uchun برلمان barlamān "parlament" ishlatiladi.

Masalan:

تواصل الأمم المتحدة التطور في دورها المحوري في الدبلوماسية من أجل السلام، مستخدمة أدوات متعددة للتفاوض والوساطة وتعزيز التعاون.

Wa tuwāṣilu al-umam al-muttaḥida at-taṭawwur fī dawrihā al-maḥwarī fī ad-diblūmāsiyya min ajli as-salām, mustakhdimatan adawāt muta‘addida li at-tafāwuḍ wa al-wisāṭa wa ta‘zīz at-ta‘āwun. [UN Document, 2021, p. 19].

“BMT tinchlik yo‘lidagi diplomatiya sohasida o‘zining markaziy rolini rivojlantirishda davom etmoqda, muzokara, vositachilik va hamkorlikni kuchaytirish uchun turli vositalardan foydalanmoqda”.

Yoki:

الدبلوماسية البرلمانية هي وسيلة لبناء العلاقات وتعزيز التعاون بين البرلمانات الوطنية.

Ad-diblūmāsiyya al-barlamāniyya hiya wasīla li-binā’ al-‘alāqāt wa ta‘zīz at-ta‘āwun bayna al-barlamānāt al-waṭaniyya. [Parliamentary Review, 2020, p. 37].

“Parlament diplomatiyasi milliy parlamentlar o‘rtasida munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va hamkorlikni mustahkamlash vositasidir”.

2. النقل الصوتي an-naql aṣ-ṣawtī “fonetik ko‘chirish”. Nizomda xorijiy so‘z talaffuzini arab tovushlari orqali imkon qadar aniq ko‘chirish, deb aniq belgilab qo‘yilgan, asosan tovush saqlanishiga urg‘u beriladi [AIDMO, 2020, p. 3]. O‘zlashmalardagi **a** tovushining **o** (transkripsiyasi – ā)ga aylanishi. Misollarga diqqat qiling: ingliz tilidan o‘zlashma bo‘lgan “federal” arab tili diplomatik terminologiyasiga فدرالي fidrālī bo‘lib qabul qilingan. Bu yerda o‘zlashmadagi so‘z o‘rtasida bo‘lgan **a** tovushi **o** unlisiga aylanganini guvohi bo‘lamiz. Shu bilan birga grafik moslashuv jarayonini ham bosib o‘tgan.

Xuddi shunday ingliz tilidan kirgan “sanction” “sanktsiya” termini arab diplomatik terminologiyasiga o‘tganda سانكشن sānkshin sifatida qo‘llanadi:

فرضت الدول الغربية سانكشنات اقتصادية جديدة على الدولة بسبب انتهاكها للقانون الدولي.

Faraḍat ad-duwal al-gharbiyya sānkshenāt iqtiṣādiyya jadīda ‘alā ad-dawla bisababi intihākihā lil-qānūn ad-duwalī. [Al-Jazeera News, 2022, p. 83].

“G‘arb davlatlari xalqaro huquqni buzgani sababli davlatga yangi iqtisodiy sanktsiyalar joriy qildi”.

Bu yerda سانكشنات sānkshānāt inglizcha ‘sanctions’ so‘zining arab tilidagi fonetik o‘zlashgan shakli hisoblanadi. Arab tili akademiyasi tomonidan سانكشن sānkshin o‘zlashma termini uchun عقوبات – ‘uqūbāt (“sanktsiyalar, jazo choralari”) varianti taklif etiladi. Bu tilda sinonimiya hodisasining kelib chiqishiga asos bo‘ladi va parallel ravishda qo‘llanadi:

فرض مجلس الأمن عقوبات على الدولة.

Faraḍa majlis al-amn ‘uqūbāt ‘alā ad-dawla. [UN Security Council, 2021, p. 103].

“Xavfsizlik Kengashi davlatga sanktsiyalar qo‘lladi”.

Yana bir misol: Butun dunyoda ko‘pgana hollarda o‘z shakli kabi ishlatiladigan xalqaro terminlar mavjud, masalan, “visa” “viza”. Ushbu termin arab tilida ikki joyda fonetik moslashuv jarayonini bosib o‘tgan: birinchidan, **v** tovushi arab tiliga o‘zlashayotgan o‘z o‘rnida **f** tovushiga aylangan, ikkinchidan so‘z oxiridagi **a** tovushi **ā** ga aylanib, yozuvda ham o‘z aksini topgan – فيزا fīzā shaklida:

يجب على المسافر الحصول على فيزا قبل دخول الدولة.

Yajibu ʻalā al-musāfir al-ḥuṣūl ʻalā fīzā qabla dukhūl ad-dawla. [Saudi MOFA, 2019, p. 231].

“Sayohatchi davlatga kirishdan oldin viza olishi kerak”.

Arab akademiyasi tomonidan ushbu “viza” termini uchun rasmiy tasdiqlangan تأشيرة ta’shīra termini taklif qilingan va rasmiy hujjatlarda ishlatiladi:

طلب تأشيرة دخول من ممثليات المملكة في الخارج.

Ṭalab ta’shīrat dukhūl min mumaththilīyāt al-mamlaka fī al-khārij. [Saudi MOFA Portal, 2020, p. 69].

“Qirollikning xorijdagi vakolatxonalaridan kirish vizasiga ariza berish”.

Yoki:

هي خدمة تمكن من الاستعلام عن تأشيرة صادرة من وزارة الخارجية.

hiya khidma tumakkin min al-istifhām ʻan ta’shīra ṣādira min wizārat al-khārijiyya. [Saudi E-Services, 2021, p. 78].

“Bu Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan viza haqida ma’lumot olish xizmati hisoblanadi”.

E’tiboringizni yana bir misolga qaratsak: arab diplomatik terminologiyasida fransuz tilidan kirgan “attaché” “attashe” (Diplomatik vakolatxonada muayyan soha boʻyicha mas’ul xodim) uchun أتاشيه atāshīh shaklida oʻzlashma termin ishlatiladi. Bu yerda ham yuqoridagi tartib ishlatilganini koʻrish mumkin, ya’ni soʻz oʻrtasiga tovush talaffuz normasi va grafik moslashuvga koʻra oʻzgarib, oʻzlashgan:

شارك الأتاشيه الثقافي في الاجتماع الدبلوماسي.

Shāraka al-atāshīh ath-thaqāfī fī al-ijtimāʻ ad-diblūmāsī. [Diplomatic Courier, 2022, p. 109].

“Madaniy attashe diplomatik yigʻilishda ishtirok etdi”.

Mazkur misolda fonetik oʻzgargan oʻzlashma diplomatik termin ال – al aniqlik artiklini olib, grafik jihatdan yana boshqa shaklga kirib bormoqda. Yana bir misol:

استقبل السفير الأتاشيه العسكري في مقر السفارة.

Istaqbala as-safīr al-atāshīh al-ʻaskarī fī maqarri as-sifāra. [SPA News, 2023, p. 216].

“Elchi elchixona binosida harbiy attasheni qabul qildi”.

Arab tilining “Rabat akademiyasi” tomonidan ushbu diplomatik terminga ملحق mulḥaq varianti taklif qilingan boʻlib, rasmiy yozishmalar va darajalarda ishlatiladi:

استقبل وزير الدفاع الملحق العسكري الفرنسي في السفارة.

Istaqbala wazīr ad-difāʻ al-mulḥaq al-ʻaskarī al-faransī fī as-sifāra. [Media Report, 2021].

“Mudofaa vaziri elchixonadagi Fransiya harbiy attashesini qabul qildi”.

Ushbu ملحق mulḥaq soʻzining ildizi ق ح ل (l-ḥ-q) boʻlib, “qoʻshilmoq”, “birikmoq”, “ergashmoq” ma’nolarini anglatadi. Asl ma’nosi “biriktirilgan”, “ilova qilingan” degan ma’noni ifodalaydi. Yana fonetik shakldagi misol:

استقبل قائد القوات المشتركة الملحق العسكري بسفارة جمهورية فرنسا.

Istaqbala qā’id al-quwwāt al-mushtaraka al-mulḥaq al-ʻaskarī bisifārat jumhūriyyat faransā. [SPA, 2022, p. 56].

“Qoʻshma qoʻshinlar qoʻmondoni Fransiya Respublikasi elchixonasining harbiy attashesini qabul qildi”.

3. الاقتراض اللغوي al-iqtirāḍ al-lughawī – “leksik o‘zlashtirish”. Nizomda leksik o‘zlashtirish masalasining alohida ajratilganligi va unda shunday jumlalar keltirilgan:

الاقتراض اللغوي ظاهرة شائعة في المصطلحات الدبلوماسية.

Al-iqtirāḍ al-lughawī ẓāhira shā’i‘a fī al-muṣṭalaḥāt ad-diblūmāsiyya. [AIDMO, 2020, p. 3].

“Leksik o‘zlashtirish diplomatik terminlarda keng tarqalgan hodisadir”.

Ayni shu tartib uchun quyidagi misolni keltirish mumkin: Ingliz tilidagi “strategy” “strategiya”, “strategik reja” termini uchun arab diplomatiya terminologiyasida o‘zlashma bo‘lgan استراتيجية istirātījiyya fonetik qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida o‘zlashgan deb baholash mumkin. Bu yerda ikki

undoshdan oldin ¦ i orttirilgan bo‘lib, g‘arb tillariga xos bo‘lgan ikki undosh ketma-ket kelgan o‘zlashmalar orasiga yoki dastlabki undoshdan oldin bir unli tovush orttirilishi leksik birlik shakllantirilayotganda amal qiladi. Unga quyidagi misolni keltirish mumkin:

وضعت الدولة استراتيجية جديدة للتعاون الدولي

Waḍa‘at ad-dawla istirātījiyya jadīda lil-ta‘āwun ad-duwalī. [UNDP Portal, 2022, p. 97].

“Davlat xalqaro hamkorlik uchun yangi strategiya ishlab chiqdi”.

Yana bir misolni keltirish o‘rinli bo‘ladi: O‘zlashmalardagi **g** tovushining **ġ** [g‘oyn] (transkripsiyasi – gh)ga aylanishi. Xalqaro siyosiy terminlardan biri hisoblangan ‘congress’ ‘kongress’ o‘z o‘rnida arab tili diplomatik terminlari qatoriga كونغرس kūnghris shaklida o‘zlashgan. Bunda **g** tovushining arab tilida mavjud emasligi inobatga olinib, **ġ** (gh)ga almashtirilgan va bu holat yozuvda ham ifodalangan. Masalan:

ألقى الرئيس الأمريكي كلمة أمام الكونغرس.

Alqā ar-ra’īs al-amrīkī kalima amāma al-kūngrīs. [International News, 2018, p. 157].

“Amerika prezidenti Kongress oldida nutq so‘zladi”.

Arab tili Rabat akademiyasi tomonidan bu terminning rasmiylashtirilgan dubleti sifatida quyidagi birikma termini berilgan va eng asosiysi, taklif qilingan variantlar ham OAVdagi materiallarda ularni qo‘llab turadi: مجلس تشريعي majlis tashrī‘ī “qonunchilik kengashi” varianti:

أقرّ المجلس التشريعي مشروع القانون بعد مناقشات مطولة.

Aqarra al-majlis at-tashrī‘ī mashrū‘ al-qānūn ba‘da munāqashāt muṭawwala. [Legal Gazette, 2019, p. 72].

“Qonunchilik kengashi uzoq muhokamalardan so‘ng qonun loyihasini tasdiqladi”.

4. الترجمة الصوتية at-tarjama aṣ-ṣawtiyya ‘fonetik transliteratsiya’. Nizomda bu masala alohida ko‘rsatilgan va quyidagi tartib bilan aks etgan [AIDMO, 2020, p. 3]:

تُستخدم الترجمة الصوتية في أسماء المؤ سسات والمنظمات الدولية.

tustakhdamu at-tarjama aṣ-ṣawtiyya fī asmā’ al-mu’assasāt wa al-munaẓẓamāt ad-duwaliyya.

“Fonetik transliteratsiya xalqaro tashkilotlar va muassasalar nomlarida qo‘llanadi”.

Unga ko‘ra, xorijiy so‘zning ma’nosini tarjima qilmasdan, talaffuzini arab yozuvida berish va grafik hamda fonetik moslashtirish lozimligi belgilab qo‘yilgan. Misol sifatida quyidagilar keltiriladi:

- UNESCO → يونيسكو → yūniskū
- UNICEF →يونيسيف → yūnisīf
- Intelsat → انتلسات → intilsāt

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa shu hisoblanadiki, arab diplomatik terminlari o‘zining e’lon qilgan fonetik jihatdan o‘zlashtirilgan terminlari hisobiga ham o‘zining terminologik fondini boyitib borgan. Tadqiqot natijasida xorijiy tillardan kirib kelayotgan xalqaro diplomatik terminlar AIDMO (Arab sanoatini rivojlantirish, standartlashtirish va tog‘-kon sanoati tashkiloti) Nizomida ko‘rsatilgan to‘rtta asosiy prinsip (arablashtirish, fonetik ko‘chirish, leksik o‘zlashtirish va fonetik transliteratsiya) asosida arab tilining ichki fonetik qonuniyatlariga va talaffuz me’yorlariga moslashtirilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tildagi parallel qo‘llanilayotgan o‘zlashma terminlar va mahalliy akademiyalar tomonidan taklif etilgan arabcha muqobillar (masalan, *sānkshin / ʻuqūbāt*, *atāshīh / mulḥaq*) diplomatik diskursda sinonimiya hodisasini boyitishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot istiqbollari zamonaviy arab tilidagi neologizmlarni hamda xalqaro tashkilotlar terminologiyasining grafik-fonetik adaptatsiyasini yanada kengroq ko‘lamda o‘rganishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Lajnah al-ʻArabiyyah al-ʻUlyā lil-Taqyīs. (2020). Al-niẓām al-dākhilī lil-lajnah al-ʻArabiyyah al-ʻulyā lil-taqyīs [Internal regulations of the Arab Higher Committee for Standardization]. Markaz al-Muwāṣafāt wa al-Maqāyīs.
2. ʻAllūb, ʻA. (2011). Muʻjam al-muṣṭalaḥāt as-siyāsiyya [Dictionary of political terms]. Dar al-Fikr.
3. Ar-Rifāʻī, A. (2012). Muʻjam al-muṣṭalaḥāt ad-diblūmāsiyya wa as-siyāsiyya [Dictionary of diplomatic and political terms]. Al-Maktaba al-Asriyya.
4. Badawi, E.-S. (2004). Modern written Arabic: A comprehensive grammar. Routledge.
5. Borrowing in Arabic Diplomatic Discourse: A Corpus-Based Study. (2022). ScienceDirect Journal, 42, 115–124. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187704282200315X
6. Brustad, K., Al-Batal, M., & Al-Tonsi, A. (2011). Al-Kitaab fii ta'allum al-'Arabiyya. Georgetown University Press.
7. Crystal, D. (2010). The Cambridge encyclopedia of language. Cambridge University Press.
8. Dictionary of Political Terms. (2020). Global Academic Press.
9. Foneticheskaya i morfologicheskaya adaptatsiya zaimstvovaniy v arabskom literaturnom yazike. (2021). E-Library Portal. https://elibrary.ru/item.asp?id=47312569 [Phonetic and morphological adaptation of borrowed words in the Arabic literary language. (2021). E-Library Portal. (in Russian)].
10. Holes, C. (2004). Modern Arabic: Structures, functions and varieties. Georgetown University Press.
11. Mirzakhmedova, K., Nishanbaeva, A., Nuriddinov, N., & Djafarov, B. (2021). The terms formatted with Arabic borrowed words in the Persian language. Innovatsionnye podkhody v sovremennoy nauke, 1(1), 201–206. https://inlibrary.uz/index.php/approaches_to_modern_science/issue/view/153#google_vignette

12. Mirzaxmedova, X.V. (2016). Penetration of new terms into the Persian language. Paradigmata poznani, (4), 110–113. https://www.supportscience.uz/index.php/ojp/article/download/1077/968/2117
13. O‘zbek terminologiyasida leksik variantlar. (1986). Fan. [Lexical variants in Uzbek terminology. (1986). Fan. (in Uzbek)].
14. Rikhsieva, G., Khalmurzaeva, N., Mirzakhmedova, K., Omonov, Q., Nasirova, S., & Khashimova, S. (2024). Interactive method of teaching of passive voice in Japanese language in Uzbekistan. Journal of Lifestyle and SDGs Review, 5(1), e04715. https://sdgsreview.org/LifestyleJournal/article/view/4715/2365
15. Stanovleniye i razvitiye arabskoy obshestvenno-politicheskoy i diplomaticheskoy terminologii. (2019). *Cyberleninka Journal.* https://cyberleninka.ru/article/n/stanovlenie-i-razvitie-arabskoy-obschestvenno-politicheskoy-i-diplomaticheskoy-terminologii [Formation and development of Arabic socio-political and diplomatic terminology. (2019). *Cyberleninka Journal.* (in Russian)].
16. Versteegh, K. (2014). The Arabic language (2nd ed.). Edinburgh University Press.